

QO‘QON XONLIGIDA IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLAR

Bahodirova Mubinaxon Bunyodjon qizi

Qo‘qon davlat universiteti Tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

bahodirovamubina741@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Qo‘qon xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning asosiy jihatlari keng tahlil qilinadi. Xususan, aholi tabaqalari, ularning jamiyatdagi o‘rni, yer egaligi shakllari, soliq tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, hunarmandchilik tarmoqlari hamda ichki va tashqi savdo aloqalari yoritib beriladi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, bozor munosabatlari va karvon savdosining xonlik iqtisodiy taraqqiyotiga ta‘siri ko‘rib chiqiladi. Maqolada turli ijtimoiy qatlamlarning iqtisodiy hayotdagi o‘rni hamda Qo‘qon xonligining tarixiy rivojlanishidagi ahamiyati ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, aholi tabaqalari, yer egaligi, soliq tizimi, hunarmandchilik, savdo-sotiq, qishloq xo‘jaligi, bozor munosabatlari.

ENGLISH ANNOTATION

This article provides a comprehensive analysis of socio-economic relations in the Kokand Khanate. In particular, it examines population classes and their role in society, forms of land ownership, specific features of the taxation system, handicraft industries, and internal and external trade relations. The article also discusses agricultural production, market relations, and the influence of caravan trade on the economic development of the khanate. Furthermore, it highlights the role of different social groups in economic life and reveals their significance in the historical development of the Kokand Khanate.

Keywords: Kokand Khanate, socio-economic relations, population classes, land ownership, taxation system, handicrafts, trade, agriculture, market relations.

РУССКАЯ АННОТАЦИЯ:

В данной статье представлен комплексный анализ социально-экономических отношений в Кокандском ханстве. В частности, рассматриваются слои населения и их роль в обществе, формы землевладения, особенности налоговой системы, ремесленные отрасли, а также внутренние и внешние торговые связи. Также анализируются

сельскохозяйственное производство, рыночные отношения и влияние караванной торговли на экономическое развитие ханства. Кроме того, раскрывается роль различных социальных групп в хозяйственной жизни и их значение в историческом развитии Кокандского ханства.

Ключевые слова: Кокандское ханство, социально-экономические отношения, слои населения, землевладение, налоговая система, ремесленничество, торговля, сельское хозяйство, рыночные отношения.

Qo‘qon xonligida (1709–1876) ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosan yer egaligi, dehqonchilik va hunarmandchilikka asoslangan bo‘lib, feodalizm tuzumi hukmron edi. ko‘ra, Farg‘ona vodiysida sun‘iy sug‘orish rivojlangan, asosiy ekinlar bug‘doy va paxta bo‘lgan. Ijtimoiy tabaqalanish yuqori bo‘lib, xon, beklar va ruhoniylar katta yer maydonlariga egalik qilgan, soliq tizimi esa og‘ir edi.

Qo‘qon xonligida yer egaligining 3 turi mavjud bo‘lgan: amlok (davlat yerlari), xususiyyerlar va vaqf. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, barcha yerlar davlatniki, deb e‘lon qilingan edi. Shuning uchun mulkdorlar yerga emas, yerdan olingan mahsulotlarga, imoratlarga egalik qilar edilar. Yerga egalik qilishda shariat qonun-qoidalariga amal qilingan. Agar 3 yil mobaynida yerdan foydalanilmasa, xiroj (ijara) haqi to‘lanmasa, yer egasi yerdan mahrum qilingan. O‘z navbatida mulkiy yerlar ham turlarga bo‘lingan: 1. Mulki xolis yoki mulki xur - davlat oldidagi alohid xizmatlari uchun berilgan bo‘lib, soliqdan ozod qilingan. 2. Mulki ushr - olinadigan hosilning 1/10 miqdorida soliq to‘lanadigan yerlar bo‘lib, bunday yer egalari ham davlat ahamiyatidagi shaxslar bo‘lgan. 3. Mulki xiroj - bosib olingan yerlar bo‘lib, hosilning 1/4 yoki 1/5 qismi miqdorida soliq to‘lanadigan yerlar. Aslida mulki xiroj yerlarini bosib olingan yerlardan tashqari, Qo‘qon hududlarida uchratish mumkin edi. Urushlar vaqtida mulkiy yerlarga berilgan imtiyozlar bekor qilingan.

Xonlikda xon va uning ixtiyoridagi yerlar ham bo‘lib, ular chek yerlar, deb atalgan. Masalan, Sheralixonning 291 desyatina yeri bo‘lgan. Ayniqsa, Xudoyorxonning chek yeri ko‘paygan bo‘lib, ularning aksariyati sug‘oriladigan yerlar bo‘lgan. Xudoyorxon davrida yerlar saroy harajatlari uchun sarflanadigan yerlar, ov qilinadigan yerlar, qo‘riqxonaga aylantirilgan mulklarga bo‘lingan. Bunday yerlar Markaziy Farg‘ona yerlarida, hozirgi Pop va Mingbuloq tumanlari hududlarida ham ko‘p bo‘lgan. Ulami xon qo‘shinlari qo‘riqlaganlar. Xonlik hududida shahar va qishloqlarda xon dam olishi uchun barpo qilingan bog‘lar bo‘lgan. Masalan, Qo‘qon shahri yaqinida 400 tanobdan iborat “Afg‘on bog‘i” va “Urganch bog‘i” bo‘lgan. U yerda xon va uning oila a‘zolari dam olgan. Bunday

dam olish maskanlari Namangan, Baliqchi, Marg‘ilon, Toshkent kabi shaharlar yaqinida ko‘proq bo‘lgan. Xon, uning qarindoshlari, feodallar, ruhoniylarning yerlari ko‘pligiga qaramasdan, dehqonlarning 40-60 foizida yer bo‘lmagan.

Qo‘qon xonligiga qarashli yerlar Norin, Qoradaryo, So‘x Isfara, Marg‘ilonsoy, Isfara, Shohimardon, Aravon, Qurshob, Asht, Novqat, Oqbura, Qorabura, Kosonsoy, Chirchiq, , G‘ovasoy, Chodaksoy, Podshootasoy kabi daryo va soylardan suv ichgan. Qo‘qon xonligida xon va davlat amaldorlari boshchiligidagi ko‘plab sun‘iy sug‘orish inshootlari bunyod etilgan, lekin, yirik inshootlar qurish qiyin kechgan. Suv inshootlari qurilishlarining ko‘pchiligi Olimxon va Umarxon davrida amalga oshirilgan. Tarixchi Y. Qosimovning ma‘lumot berishicha, 1803-yili Norin daryosining o‘ng sohilida hashar yo‘li bilan Yangiariq arig‘i kavlangan. U Qizilravot, Uychi, Chortoq, Namangan va Xonobod kabi shahar va qishloqlarni suv bilan ta‘minlagan. Yangiariqdan umumiy 96 ta ariq chiqarilgan. 1819-yilda Umarxon farmoni bilan Yangiariq kanalini kengaytirish boshlangan. Farmonga ko‘ra, Namangan viloyatidan har bir oiladan bir odam o‘z ish quroli va o‘n besh kunlik ozuqasi bilan kelishi majburiy bo‘lgan. Kanal qurilishiga boshqa viloyatlardan ham aholi hasharga jalb etilgan. Kanal qazish uch yilga cho‘zilgan va 100 chaqirimga yetkazilgan. 1819-1821-yillarda esa Shahrixon soyi kavlangan va u Nahri Umarxoniy kanali deb nomlangan. Uzunligi 101-chaqirimdan iborat bo‘lgan bu kanalga Qoradaryodan suv olingan. Kanal bitgach, Andijon viloyatining janubi-sharqiy yerlariga suv chiqarilib, qo‘riq va bo‘z yerlar o‘zlashtirish boshlangan, aholi yangi yerlarga ko‘chib kelgan. Natijada Shahrixon shahri bunyod etilgan. Madalixon davrida ham yangi kanallar qazilgan. Masalan, Sirdaryoning chap sohilida Gurtepa va Momoxon ariqlari, Toshkent yaqinidagi Xonariq shular jumlasidandir. Madalixon davrida Chirchiq daryosidan Bo‘zsuv, 70 chaqirim uzunlikdagi Zog‘ariq qazilgan. Chirchiq daryosidan jami 45 ta kanal va ariq chiqarilgan.

Qo‘qon xonligida paxta mahsulotlaridan tashqari ipakchilik bo‘lib, ipak va ipak matolar chetga ham chiqarilgan. XIX asr 60-yillari oxirlarida Qo‘qon va Marg‘ilonning o‘zida to‘qqiz yuzgayaqin xonadon ipakchilik bilan shug‘ullangan. Xonlikda tayyorlangan ipak sifatli hisoblanib, sifatiga qarab - “chilla”, “tafil”, “samoq” va boshqa navlarga ajratigan. Shuningdek, xonlikda ipak mahsuloti yigirilib, kalava ham tayyorlangan. Ipakdan turli matolar to‘qilgan. Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan va Xo‘jand hunarmandlari ipak (kanoviz, shoyi, atlas va h.k.) va yarim ipak matolar (beqasam, banoras, adras) ishlab chiqarganlar. Qo‘qon xonligi hunarmandlari tomonidan tayyorlangan matolar orasida atlas taniqli hisoblangan. Marg‘i- londa bu gazlama “atlas” yoki “jiba arqoq” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Lekin, XIX asr boshlaridan O‘rta Osiyo bozorlariga ingliz va rus

mollarining kirib kelishi bilan mahalliy matolar kasodga uchray boshlagan. Ko‘p o‘tmay, Qo‘qon xonligi ham boshqa O‘rta Osiyo xonliklari kabi xomashyo yetishtiruvchi mamlakatlardan biriga aylanib qolgan.

Mamlakat bozorlariga shahar va qishloq aholisi dehqonchilik hamda hunarmandchilik mahsulotlari, tog‘li hudud aholisi va ko‘chmanchi chorvadorlar chorva va chorvachilik mahsulotlarini olib chiqqan. Mahalliy savdogarlar xonlikning chekka qishloqlariga borib, o‘sha hududda yetishtiriladigan yoki tayyorlanadigan mahsulotlarini arzon bahoda, ulgur jisiga sotib olgan va yirik shahar bozorlariga keltirgan. O‘z navbatida, hunarmandlarning mollarini sotib olib, o‘zlari bozorma-bozor, shaharma-shahar, qishloqma-qishloq sotib yuruvchi savdogarlar ham faoliyat yuritgan. Qo‘qon xonligi tashqi savdo aloqalarida Buxoro va Xiva xonliklari alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu xonliklar o‘zaro chegaradosh bo‘lishi bilan birga, ularda yashayotgan xalqlar tili, dini, madaniyati va tarixining mushtarakligi o‘zaro munosabat- larning muhim omili bo‘lib xizmat qilgan. Buxoro va Xivadan tashqari, Qo‘qon xonligi Rossiya, qozoq dashtlari, Qoshg‘ar, Xitoy, Afg‘oniston, Eron, Hindiston, arab mamlakatlari, Turkiya va boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirga[1].

Qo‘qon xonligida aholi sun‘iy sug‘orish mahoratini mukammal egallagandi. Suvdan oqilona foydalanilardi. Xonlikda asosiy qishloq xo‘jaligi ekini bug‘doy bo‘lgan. Shuningdek, meva, sabzavot va poliz ekinlarining deyarli barcha turlari yetishtirilgan. Chorvachilikda makkajo‘xori va beda yetakchi o‘rinda turgan. Xonlikda paxtachilik ham alohida o‘rin egallagan. Farg‘ona vodiysining ko‘pgina dehqonlari paxtakor bo‘lib, paxtachilik yildan yilga rivojlana bordi. Rossiyaning Markaziy Osiyodan, avvalo, Qo‘qondan paxta sotib ola boshlashi bu ekin maydonlarining yanada kengayishiga sabab bo‘ldi. Paxta savdosiga hatto boj ham bekor qilindi. Shu sababli Qo‘qon savdogarlari Rossiyaga serqatnov bo‘lib qolishdi. Talabning o‘sib borishi bilan paxta narxi ham oshib bordi[2].

Qo‘qonga qo‘shni shaharlar va xorijiy mamlakatlardan savdogarlar kelib turgan. Shaharda yakshanba va chorshanba kunlari bozor bo‘lgan. Qo‘qon xonligining iqtisodiy hayotida Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qashqar, Hindiston, Afg‘oniston, Eron va, ayniqsa, Rossiya bilan bo‘lgan savdo katta o‘rinni egallagan. Masalan, Qashqar bilan olib borilgan savdo-sotiq faqat Qo‘qon orqali bo‘lardi. Qo‘qondan Qashqargacha yuklangan ot karvoni 14–20 kun yo‘l yurgan. Qo‘qondan Qashqarga temir, qizil charm, ipak va ipdan to‘qilgan matolar, oltin olib borilgan. Qo‘qon karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Qashqar, Buxoro amirligi, Afg‘oniston, Rossiyadan olib kelingan mollar ayirboshlanardi. Qo‘qonga savdogarlar karvon yo‘llari orqali kelgan[3].

Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon xonligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosan yer egaligi, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqqa tayangan. Jamiyatda xon, beklar va ruhoniylar katta yer egalari bo‘lib, oddiy dehqonlar og‘ir soliqlar ostida yashagan. Sun‘iy sug‘orishning rivojlanishi qishloq xo‘jaligi taraqqiyotiga xizmat qilgan, paxtachilik va ipakchilik esa muhim tarmoqlarga aylangan. Tashqi savdo aloqalari, ayniqsa Rossiya, Buxoro va Qashqar bilan savdo xonlik iqtisodiyotida muhim o‘rin tutgan. Umuman, Qo‘qon xonligining iqtisodiy hayoti uning tarixiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullaev U.S. Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar (XIX–XX asr boshlari). – Toshkent, 2005.
2. Jahon mamlakatlarining huquqiy tizimlari. Qomusiy lug‘at. – Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006.
3. Kuldashev Sh.T. Qo‘qon xonligi va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar (XVIII–XIX asr o‘rtalari). – Toshkent, 2009.
4. Madrahimov Z.Sh. Qo‘qon xonligida savdo munosabatlari tarixi. – Toshkent: Yangi nashr, 2009.
5. Madrahimov Z.Sh. Qo‘qon xonligida savdo munosabatlari. – Toshkent, 2009.
6. nashriyoti, 2014. 30-37 betlar
7. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi (elektron resurs). (Kirish sanasi: 02.12.2020, soat 13:37)
8. U. Kuzikulov. Qo‘qon xonligi tarixi (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). - “Namangan”.
9. <https://tarix-kitob.uz/o%CA%BBzbekiston-tarixi-8/qoqon-xonligida-iqtisodiy-hayot/>
10. <https://tarix-kitob.uz/category/o%CA%BBzbekiston-tarixi-8/7-bob-qo%CA%BBqon-xonligi-xviii-xix-asrlarda/>